

201

Alisher Navoiy  
nomidagi  
O'zbekiston MK

# Tong yulduzi

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

N:27 (67192)  
2018-yil 2-iyul

[www.tongyulduzi.uz](http://www.tongyulduzi.uz)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

*Quchoq ochaz bizga ozomgoh,  
Kitob, sport bo'ladi hamzoh!*

4-bet



**USHBU SONDA:**

**MUALLIM  
DESALAR MENI,  
QANIYDI!**

2-bet

**BEZORILIK  
«YIGITCHILIK»MI?**

3-bet

**Nurmuhammad XURRAMOV:**

**«FAQAT IJOBIY  
ROLLARNI O'YNASHNI  
ISTAYMAN»**

5-bet

**Qaysi yerda ilm-u ma'rifat kuchli bo'lsa, o'sha yer baxt maskani hisoblanadi.**

# MUALLIM DESALAR MENI,

## QANIYDI!

**Aziz o'quvchim! Yurtimizda turli sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarni ommaviy axborot vositalari orqali kuzatib borayotgan bo'lsangiz, ajab emas. Ayniqsa, Sizni ta'lim tizimidagi yangiliklar befarq qoldirmaydi.**

Kuni kecha O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligida sohadagi o'zgarishlar, kelajakdagi rejalar hamda mavjud muammolarni bartaraf etish masalalariga bag'ishlangan brifing o'tkazildi. Tadbirda Xalq ta'limi vaziri Sherzod Shermatov tashkilotning bundan keyingi ish faoliyati sifat, adolat, shaffoflik asosida tashkil etilishini bildirdi. Shuningdek, vazir «Ilgari bolalarimizdan «Kelajakda kim bo'lmoqchisan?» deb so'rasangiz, «O'qituvchi», deya javob bergan. Chunki ular o'qituvchi timsolida eng obro'li, ziyoli, hurmatli kasb egalari tasavvur qilgan. Ustozning fe'l-atvorida eng yaxshi fazilatlarini ko'rgan.

**Shoirga dedilar: Siz – baxtli inson, El-yurt ardoqlaydi, hamma taniydi. Shoir javob berdi: – Menda bor armon, Muallim desalar meni, qaniydi!..**

Shu bois, yana shu qadriyat va sharafni tiklash, pedagog xodimlarning sifatli ishlashi uchun sharoit yaratish, ularni faqat va faqat barkamol avlodni voyaga yetkazishga qaratilgan yumush-



**Sherzod SHERMATOV, Xalq ta'limi vaziri:**  
– Ilgari bolalarimizdan «Kelajakda kim bo'lmoqchisan?» deb so'rasangiz, «O'qituvchi», deya javob bergan. Chunki ular o'qituvchi timsolida eng obro'li, ziyoli, hurmatli kasb egalari tasavvur qilgan.

larga jalb qilish lozim», deya fikr bildirdi. Bu yo'lda barchani hamkorlikka chorlab, o'qituvchining jamiyatdagi obro'sini oshirish masalasiga e'tibor qaratish lozimligini ta'kidladi.

Shunday ekan, biz Siz aziz o'quvchilarni ham mulohazaga chorlaymiz. Ayting-chi, xalqimiz «Ustoz otangdek ulug'», deya ta'rifi bilan muallimlar haqida faxr va iftixor bilan nimalarni so'zlab bergan bo'lardingiz? Ularning hurmatini joyiga qo'yish, bu mehridaryo insonlar oldidagi qarzni qanday ado etish mumkin, deb o'ylaysiz? Bu haqda, albatta, bizga yozib yuboring.

O'z muxbirimiz

## TANISHING: XALQARO OLIMPIADA G'OLIBLARI

Shu yilning 19–23-iyun kunlari Samarqandda

umumta'lim maktablarining 10–11-sinf o'quvchilari o'rtasida fizika va astronomiya fanlari bo'yicha Mirzo Ulug'bek nomidagi xalqaro olimpiada o'tkazilgani haqida gazetamizning avvalgi sonida xabar bergan edik.

Prezidentimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan mazkur Xalqaro tanlovda fizika fanidan O'zbekiston jamoasi a'zosi Umidjon Hafizov oltin medalni qo'lga kiritdi. Temur Tinichbekov (Qirg'iziston), Islam Amangeldi (Qozog'iston), o'zbekistonlik Otabek Hasanov va Abdurahmon Nosirovlar kumush medalga sazovor bo'ldi. Turkmanistonlik Meylis Xodjamurodov, qozog'istonlik Yerasil Telman, Madina Namugambetova, qirg'izistonlik Ernazar Sidiqov hamda hamyurtlarimiz Soliboy Roziqov, Bobur Halimovlar bronza medaliga munosib deb topildi.

Astronomiya fanidan qirg'izistonlik Iriskeldi Anarbekov oltin medalni qo'lga kiritdi. Qozog'iston vakili Amankul Janibek kumush, hamyurtimiz Do'stmamat Bozorqulov va yana bir qozog'istonlik o'quvchi Kenes Yerjan bronza medaliga sazovor bo'ldi.

Fursatdan foydalanib, g'olib o'quvchilarning taassurotlari bilan qiziqdik:

**Umidjon HAFIZOV, Namangan davlat universiteti akademik litseyining 3-bosqich o'quvchisi, oltin medal sovrindori:**

– Xalqaro olimpiadada g'olib bo'lganimni e'lon qilishganda, quvonchim ichimga sig'madi. Qalbimda cheksiz faxr-iftixor hissini tuydim. Yurtimiz yoshlari buyuk ajdodlariga munosib bo'lib, jahon ilm-fani



rivojiga munosib hissa qo'sha olishi mumkinligiga ishonchim bor. Qolaversa, kumush medal sovrindori Otabek Hasanov, bronza medaliga munosib ko'rilgan Soliboy Razzoqov hamda Bobur Halimov kabi bilimga chanoq tengdoshlarim erishgan yuksak natijalardan boshim ko'kka yetdi.

Bunday yutuqlarni qo'lga kiritishimda ustozim Doniyor Oripovning xizmatlari beqiyos. Ular birinchi darsdan fizika va matematikaga qiziqishim borligini payqab, men bilan yakka tartibda shug'ullanishga vaqt ajratdi. Ustozim har bir mavzuni takrorlashdan sira charchamaydi. Shu bois, bugunga qadar tuman, viloyat va respublika miqyosidagi fan olimpiadalarida bir necha bor g'oliblikni qo'lga kiritdim. Qolaversa, joriy yil Indoneziyada bo'lib o'tgan xalqaro olimpiadada ham muvaffaqiyatli ishtirok etdim. Nasib bo'lsa, shu yilning 21–29-iyul kunlari Portugaliyadagi olimpiadada ona Vatanim sharafini munosib himoya qilishni maqsad qilganman. Bu yo'lda o'qib-izlanishdan aslo tolmayman.

**Soliboy RAZZOQOV, Navoiy viloyati, Zarafshon shahridagi 12-umumta'lim maktabining 10-sinf o'quvchisi:**

– Olimpiadada bronza medal sovrindori bo'lganligim haqida xushxabarni birinchi bo'lib ota-onamga, so'ng mehridaryo ustozlarim – Otabek Fozilov, Ulbo'lsin Beknazarova, Lobar Eshonova, Malika Ergashevaga yetkazdim. Erishgan yutuq'imdan yaqinlarim xursand bo'lib, quvonchimga sherik bo'lishdi.

Bilasizmi, agar insonda biror-bir fanni chuqur o'zlashtirishga ishtiyoq bo'lsa, u har bir mavzuni puxta o'rganadi. Misollarni ishlashdan, qayta-qayta takrorlashdan erinmaydi. Aksincha, bu mashg'ulotdan olam-olam zavq oladi. Kelajakda yadro energetika sohasida yetuk mutaxassis bo'lib, mamlakatimiz energetika sanoati rivojiga munosib hissa qo'shmoqchiman.



**Do'stmamat BOZORQULOV, S. Sirojiddinov nomidagi akademik litseyning 3-bosqich o'quvchisi:**

– Asli surxondaryolikman. Dadam muhandis bo'lib ishlaydi. Onam uy bekasi. Ota-onam biz farzandlarning bilim olishimiz uchun barcha sharoitlarni yaratib berishgan.

Boshlang'ich sinfda o'qib yurganimda, eng sevimli fanim matematika edi. 5-sinfni tamomlagach, Termiz shahridagi 4-DI-UMga o'qishga qabul qilindim. Ushbu ta'lim maskanida ustozim Qizlargul Alixanovaning matematikani katta qiziqish bilan o'rgandim. So'ng, litseyda o'qish uchun Toshkent shahriga keldim. Mana uch yildirki, ustozim Farhod Jo'rayev yordamida fizika va astronomiya fani bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarimni mustahkamlab kelmoqdaman.

Joriy yil fevral oyida Rossiyada MDH mamlakatlari o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan Fiztexnika bo'yicha xalqaro olimpiadada muvaffaqiyatli ishtirok etib, II darajali diplom bilan taqdirlandim. Kelajakda yurtimizdagi nufuzli oliygo'harlardan biriga o'qishga kirib, soha rivojiga munosib hissa qo'shish niyatim bor.



– Kela-jakda yangidan yangi zafarlarni qo'lga kiritishga astoydil intilamiz, – deydi Otabek Hasanov hamda Do'stmamat Bozorqulov.

Nodira NAZAROVA

## «BOYLIKNI BOLALIKDAN ASRANG» TANLOVIGA



Buni ko'rgan hamshaharlari undan: «Sen nega hech narsa olmading?» deya so'rashibdi. Shunda faylasuf: «Men o'zim uchun eng qimmatli narsani oldim», deb javob bergan ekan. Ha, suvning inson hayotidagi o'rini hech narsa bilan qiyoslab bo'lmaydi.

Tabiiy gaz ham turmushimizni farovon qilayotgan noyob ne'matdir. U tufayli shirin taomlarimiz, issiq choyimiz muhayyo.

Bir kuni dugonamnikiga dars tayyorlagani bordim. Ularning mahallasi

## Zaminning ko'zida ko'rmay desang yosh, Boylikni bolalikdan asra, vatandosh!

Donishmand xalqimiz suvni yorug'likka qiyoslaydi. Zardushtiyarning muqaddas kitobi «Avesto»da ham obihayotni ifloslantirmaslik, uni tejab ishlatishga doir qimmatli fikrlar yozilgan.

Biz kun bo'yi chanoq'imizni qondirish uchun 3 litrgacha suv ichamiz. Nahorda esa 1 stakan ichilgan suv tetik yurishga yordam beradi. Shunday ekan, ushbu hayot sarchashmasidan oqilon foydalanishimiz shart.

Qadimgi yunon faylasufi Biont yashagan shaharni dushman ishg'ol etibdi. Shahar aholisi eng qimmatbaho buyumlarni olib qocha boshlabdi. Faqat Biontgina o'zi bilan bir idishda toza suv olibdi, xolos.



tabiiy gaz tarmog'iga ulanmagani sababli, kechki ovqatni o'choqda tayyorlashayotgan ekan. Dugonamning onasi ho'l o'tinni yondirishga qiynalar, hovlini achiq tutun qoplagan edi. Shunda xonadonimizda tabiiy gaz borligiga shukur qildim.

Aziz tengdoshim! Shu go'zal, maftunkor yurt bizniki, demak, uning bag'ridagi beqiyos boyliklar ham. Ularni asrab-avaylash esa barchamizning muqaddas burchimizdir.

**Maftuna NOSIROVA,**  
Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi  
21-umumta'lim maktabi o'quvchisi

Maqtangan pand yeydi,  
Kamtarin qand yeydi.

## BOBOMDAN IBRAT OLDIM

*Hayotda har bir narsaning bahosi bo'lganidek, farovon turmushga erishishning o'ziga yarasha mashaqqati bor. Odamzod bir narsaga erishmogi uchun huzur-halovatidan kechishiga to'g'ri keladi.*

Menga bobom juda ko'p ibratli voqealarni aytib bergan. Ular doim «Kattaga hurmatda bo'l, kichikka izzatda», deydilar. Qolaversa, yoshi kattalarga salom berishni esdan chiqarmasligimiz lozimligini uqtiradilar. Biz ulug' insonlarning qadr-qimmatlarini o'miga qo'yib, o'zimizning yaxshi tomonlarimizni ko'rsatishimiz lozim. Bu ham qarz, ham farzdir.

**Rahmatjon UBAYDULLAYEV,**  
Samarqand shahridagi 46-umumta'lim maktabi o'quvchisi

## BEZORILIK

### «YIGITCHILIK»MI?

*O'quv yili davrida ustozimizning turli mavzularda o'tkazgan tarbiyaviy soatlarda ba'zi ta'lim dargohlaridagi o'quvchi-yigitlarning mushtlashuvlari, bezoriliklari haqida gap borgandi.*

So'nggi darslarda esa ustoz barchamizga ta'lim vaqti bekor-chilikdan nari yurib, ko'ngilsiz voqealarga aralashib qolmaslikni tayinlagan edi. Xullas, bu mehdariyo insonlar bo'sh vaqtimiz doim foydali va mazmunli o'tishining tashvishini qilishadi. Ammo bu, eng avvalo, biz yoshlarning o'zimiz uchun muhim ekanini hisobga olsak, asosiy tashvishni kim qilishi kerakligi ma'lum bo'ladi.

Mana, ta'limning bir oyi ham ortda qoldi. Bu fursat ko'pchilikka rejalangan ishlarni amalga oshirish, sport bilan shug'ullanishning ayni pallasi bo'lgan bo'lsa, ayrimlarga bekorchilik uchun ayni mudao bo'ldi. Afsuski, ba'zi o'g'il bolalar yigitchilikda hamma narsa bo'lishi mumkin, deyishadi. Ammo yoshlik poydevori yemirilsa, umr uyini qayta qurib bo'lmaydi. Yigitchilikdagi kichkina xato insonga bir umr yomon tamg'a bo'lib qolishi mumkin. Shunday ekan, kuchingizni, bo'sh vaqtingizni sportga bag'ishlang. Yurt bayrog'i g'ururingiz kabi mag'rur hilpirashini istasangiz, imkoniyatlardan foydalanib, shijoatingizni ishga soling.

**Mardona ZOKIROVA,**  
Angren axborot texnologiyalari va san'at kasb-hunar kolleji o'quvchisi

### AZIZ O'QUVCHI!

*O'zingizni chetdan kuzatishga ancha o'rganib qoldingizmi? Tahlillar, xulosalaringizni kundalik daftaringizga qayd qilib boryapsizmi? Agar o'zingizga bu mashg'ulot ma'qul kelayotgan bo'lsa, ta'til paytida mahallangizdagi tengdoshlaringizga ham o'rgating. Qarabsizki, mukammallikka, yaxshilikka intiluvchan yoshlar safi ortadi.*

## KAMTARLIK

Go'zal fazilatlaridan biri – kamtarlik. Maqtanchoqlik esa insonning o'ziga xalaqit beradigan xususiyat. Bu haqda ko'p bor eshita ham, Malika ismli o'quvchi qiz maqtanishini qo'ymasdi. Uydagi gultuvakda gul ochilsa ham sinfdoshlariga maqtanardi.

– Isming Malika-yu, hadeb maqtanchoqlik qilishing g'alati. Agar yaxshi qiz bo'lsang, shundoq ham seni boshqalar maqtaydi. O'z-o'zingni gapiraverishing – odobsizlik!

Dugonalaridan shu tarzda tanbehlarini ko'p bor eshita-da, Malikaga ta'sir qilmasdi. Imkon bo'ldi deguncha maqtanishga tushardi. Agar tanishlar so'zini eshitmasa, notanishlarga ham gapiraverardi. Ana shunday kunlarning birida darsdan so'ng buvisinikiga ketayotgan Malika o'zi bilan avtobus o'ringidagi yonma-yon o'tir-

gan qizga maqtana boshladi.

– Men raqsga qiziqaman. Yaqinda yulduz bo'lib ketaman...

– Qanaqa qilib? – taajjublanib so'radi hamrohi.

– Buvim mashhur raqqosa bilan meni shogirdlikka olishlari haqida gaplashib keldilar. Ta'tilga chiqishim bilan mashg'ulotlarga qatnayman. Raqqosa ikki oyda mashhur qilib yuborar ekan.

Buvim menga tufidan tortib, tillaqoshgacha olib qo'ydi. Hatto ko'yilgimga mos qilib zumrad ko'zli zirak ham sotib oldilar. «Chiroyli libos – raqsnig yarim muvaffaqiyati», debdi ustozim.

Malika to o'zining bekatiga yetguncha liboslarining qimmatbaholigi, aslligi haqida og'iz ko'pirtirib gapirib keldi.

– Buvingizning uyi qaysi biri? – deb so'radi Malika bilan birga avtobusdan tushgan qiz.

– Anavi ko'k eshik, yuring, raqs liboslarimni

ko'rsataman...

Kimgadir kiyimlarini ko'rsatib maqtangisi kelayotgan Malika notanish qizni buvisinikiga taklif qildi. Qiz unga ergashdi.

...Oradan uch kun o'tib, Malika maktabga yuz-ko'zlari qizargan holda kirib keldi.

– Tinchlikmi? – deb so'rashdi uni hech qachon bu ahvolda ko'rmagan sinfdoshlari.

– Raqs liboslarimni... O'g'irlab ketishibdi... – Malika shunday deb yig'lab yubordi.

Ha, o'g'ri o'sha – Malikaning avtobusdagi notanish sherigi edi. U Malikaning buvisini:

– Nevarangizni ustoz chaqiryapti, tez kiyimlarini berib yuborarkansiz, – deb aldagan ekan. Buvisi qanday ishonmasin?! Axir bu qiz uch kun avval nevarasi

bilan uyiga kelgan, Malika uni «dugonam» deb tanishtirgan edi-da!

**Qutlibeka RAHIMBOYEVA,**  
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan  
madaniyat xodimi

Yaxshi dam –  
a'lo o'qishga hamdam.

## Gulla, yashna, «Gulg'uncha», Bizning guruh – «Yulduzcha»!

### «YOZNI «KAMALAK» BILAN!»

Ayni kunlarda go'zal tog'-yonbag'irlarida joylashgan oromgohlar-u dam olish maskanlari bolajonlarning quvnoq va shodon kulgilari bilan to'lgan.



Samarqand viloyatining Tayloq tumanidagi 14-umumta'lim maktabi o'quvchilari esa ta'til kunlarini jonajon maktabi qo'ynidagi sog'lomlashtirish oromgohida o'tkazishni ma'qul ko'rishdi. Yaqinda ushbu maskanda «Yozi» «Kamalak» bilan!» loyihasi doirasida 14- hamda 16-umumta'lim maktabi o'quvchilari o'rtasida sportning shaxmat-shahka, futbol va yugurish turlari bo'yicha musobaqa bo'lib o'tdi. Tadbirga tuman «Kamalak» bolalar tashkiloti raisi Nodir Qudratov, 37-umumta'lim maktabi yetakchisi Laylo Isaxonova taklif etildi. Shaxmat bellashuvlari yakunida Hasan Hazratqulov, yugurish marafonida esa Shahriyor Abduvohidxonov 1-, Davlat Amriddinov 2-, Sunnat Umarov 3-o'rinni qo'lga kiritdi. Qiz bolalar bahsida Marjona Normahmadova 1-, Shahrizoda Usmonqulova 2-, Muxlisa Yusupova esa 3-o'rinni zabt etdi. G'olib o'quvchilar tuman Yoshlar ittifoqi tomonidan esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Ha, samarqandlik o'quvchilarga havas qilmay iloj yo'q. Ularning har biri bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazmoqda. Bu tadbirlarga maktab yetakchisi Xushnuda Ahmedova bosh-qosh. Siz-chi, ta'til kunlaringizda qanday foydali yumushlar bilan bandsiz? Shu haqda bizga, albatta, yozib yuboring.

Ozoda TURSUNBOYEVA

Poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 39-umumta'lim maktabidagi mazkur maydonchada bolalarning maroqli dam olishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Turli sport to'garaklari esa o'quvchilarni faollik va tirishqoqlikka chorlamoqda. Qolaversa, «Bulbulcha», «Happy English», «Ertaklar – yaxshilikka yetaklar», «Kitobim – oftobim», «Sanamay sakkiz dema» kabi to'garaklar bolajonlarning o'quv yili davomida olgan bilimlarini takrorlashlariga xizmat qilmoqda.

– Men rasmlar tanlovida g'olib bo'ldim. Bundan ota-onam xursand bo'lishdi. Maydonchada har bir kunimiz maroqli o'tmoqda. Menga, ayniqsa, turli tanlov va musobaqalarda ishtirok etish yoqadi, – deydi Abdulbosit Bahodirov.

Bundan tashqari, ta'til bo'lishiga qaramay,

Mirka-  
mol bugun ham  
maktabida tashkil

etilgan «Gulg'uncha» nomli  
sog'lomlashtirish maydonchasi  
tomon shoshmoqda. Chunki u  
bu yerda do'stlari bilan birga  
turli sport musobaqalarida  
ishtirok etadi.

maktab kutubxonasi ham o'quvchilar bilan gavjum. Kitobxonlar O'zbekiston yoshlar ittifoqi tomonidan tashkil etilgan «Yosh kitobxon» ko'rik-tanloviga qizg'in tayyorgarlik olib bormoqda. Demak, ularning



bo'sh vaqtlari mazmunli va chog' o'tayotgani, shubhasiz.

Malohat MIRISXOQOVA

### KO'NGILLI HORDIQ

G'allaorol tumanidagi 44-umumta'lim maktabida «Tong shu'lasi» bolalar sog'lomlashtirish oromgohi tashkil etilgan.

Dam olish maskanidagi so'lim manzaralar, anvoyi gullar taratayotgan yoqimli ifor, anhordan shildirab oqayotgan zilol suv barchaning diliga orom va halovat bag'ishlaydi. Adiba Jo'raboyeva va Muhayyo O'rzova rahbarligidagi guruhlar faoliyati tahsinga loyiq. Shuningdek, jismoniy tarbiya va sport yo'riqchisi Jasur Anqaboyev yetakchiligidagi tarbiyalanuvchilar an'anaviy o'yinlardan tashqari «Tortishmachoq», «Yelkada kurash», «Kim chaqon?» kabi milliy o'yinlarni katta qiziqish bilan bajarmoqda. Maftuna Usmonova tashkillashtirayotgan turli tadbirlar, sahna ko'rinishlari, qo'shiq aytish va raqsga tushish tanlovlari esa ko'pchilikka manzur bo'lmoqda. Oromgohning «Bulbulcha» va «Boychechak» guruhlarida qo'ligul qizlar tomonidan tikilgan ko'zni qamashtiruvchi ipaklar jilosi va ranglarning uyg'unlashuvi kishini o'ziga maftun etmay qo'ymaydi.

Tumandagi 2-umumta'lim maktabi qoshida Sobir Sodiqov rahbarligidagi «Lochin» oromgohining tajribali tarbiyachilaridan Sojida Habibullayeva, Buvoyshta Aliqulova va Sadridin Abdurasulovlar bolajonlarning ko'ngilli hordiq chiqarishi uchun bor bilim va tajribalarini ishga solmoqda. Dam olish maskanida bolajonlarning ko'ngilli hordiq olishi uchun puxta tayyorgarlik ko'rilganligi shundoqqina ko'zga tashlanadi. Ko'chma kutubxona bolalarbop badiiy asar va uslubiy qo'llanmalarga boy.

– Viloyatimizda bu yilgi yoz mavsumida 12 ta shahar tashqarisida joylashgan va 58 ta kunduzgi oromgohlarda jami 13525 nafar o'g'il-qizning ko'ngilli hordiq chiqarishi rejalashtirilgan, – deydi Jizzax viloyat Kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi Kengashi yetakchi mutaxassisi To'lqab To'ychiyev. – Shuningdek, 75 nafar kam ta'minlangan oila farzandlari «Mahalla» jamoat fondi hisobidan sog'lomlashtirilmogda.

Abdulla SAIDOV,  
Jizzax viloyati



### MAKTAB OROMGOHIDA...

O'quvchilarning yozgi ta'til davrini maroqli tashkillashtirish maqsadida yurtimizning barcha hududlarida statsionar va kunduzgi oromgohlar faoliyat olib bormoqda.

Poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 242-umumta'lim maktabida tashkillashtirilgan «Solnishko» nomli yozgi sport sog'lomlashtirish maydonchasi-da ayni paytda 150 nafar bolajonlar miriqib hordiq chiqarmoqda. Kamola Azimxodjayeva rahbarlik qilayotgan dam olish maskanida «Delfin», «Raduga», «Pchyolka» va «Lider» guruhlariga jalb qilingan bolajonlar turli sport hamda «Ertaklar olami», «Mohir qo'llar» to'garaklari mashg'ulotlarida faol ishtirok etishmoqda.

Hafta kunlarida sun'iy suv havzasi, muzeylarga sayohatlar uyushtiriladi. Malika Vohidova, Noila Qosimova, Surayyo Toshpo'latova va Bahodir Qahhorov singari pedagog-tarbiyachilar dam oluvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkillashtirishda jonbozlik ko'rsatmoqda.

NURBEK



## Nurmuhammad XURRAMOV: «FAQAT IJOBIY ROLLARNI O'YNASHNI ISTAYMAN»

O'zbek Milliy akademik drama teatriga juda ko'p marta kelganman. Mana, bugun kasb bayramim taqozosi bilan yana teatrdaman. Bayram tadbirining tantanali qismidan so'ng spektakl boshlandi. Buyuk yozuvchi Chingiz Aytmatovning «Oq kema» asari asosida sahnalashtirilgan spektakl va uning ijrochilari meni shu darajada hayajonga soladi, deb hech o'ylamagandim. Ayniqsa, Toshent shahar, Chilonzor tumanidagi 164-umumta'lim maktabining 6-sinfni muvaffaqiyatli tamomlagan Nurmuhammad Xurramov bosh rol - Nurqo'zini juda tabiiy, ishonarli va samimiy ijro etdi. Fursatdan foydalanib, teatr qoshidagi «Tasanno» bolalar teatr-studiyasi a'zosini suhbatga chorladik:

– Nurmuhammad, hozirgina siz ishtirok etgan «Oq kema» spektaklini ko'rib, tomoshabinlar rosa hayajonlandi...

– Men ham hayajonlandim. Axir bugungi tomoshabinlar oddiy tomoshabin emas. Keyin Dilbar Ikromova, Abduraim Abdurahobov, Lola Eltoyeva, Rustam Karimov, Nodira Mahmudova kabi katta san'atkorlar bilan bitta sahnada rol ijro etish men uchun katta baxt. Har safar ustozlarim bilan yonma-yon turganimda, quvonib ketaman va ulardan juda ko'p narsani o'rganishga intilaman. Teatr-studiyadagi bolalar orasidan ushbu rolga meni tanlab olishlari yana bir baxtim. Buning uchun barcha ustozlarimga, Shohida opamga minnatdorlik bildiraman. Chunki ularning saboqlari animan shu rolimga juda asqotyapti.

– Buyuk yozuvchi Chingiz Aytmatovning

shu qissasini o'qiganmisiz?

– Ikki marta o'qib chiqqanman. Birinchi gal o'qiganimda, hali bu rolni o'ynashim aniq emasdi. Menga ishonch bildirishganidan keyin kitobni ikkinchi marta mutolaa qildim.

– Spektakl davomida bir necha marta shoxdor ona bug'uga murojaat etasiz. Uning hayotda borligiga ishonasizmi?

– Albatta. Kattalar, kitoblarda hech bo'lmasa haqiqatning uchquni aks etadi, deyshadi-ku. Keyin hayvonlar ichida ham kiyikni juda yaxshi ko'raman. Ayniqsa,

tog'lardagi kiyiklarni o'z ko'zim bilan ko'rishni istayman. Bilasizmi, spektakldagi qahramonim kabi holatga biror-bir bola tushmasligini orzulayman. Chunki uni ota-onasi tashlab ketishgan, yetim bo'lib qolgan. Faqat bobosigina uni tushunadi. Uning sirdoshi cheksiz dengiz va bug'ular.

Bilasizmi, yomon bolalarning rolini hech o'ynagim kelmaydi. Faqat ijobiy rollarni o'ynashni istayman. Biroq ustozlarim aktyor ijobiy va salbiy obrazni birday mahorat bilan o'ynashi kerak, deb ta'lim berishyapti...

Abdullil NABIYEV suhbatlashdi

### Lesson 27

## THE ONION THIEF

Read the text and correct the tenses.

Once upon a time in summer morning a boy who's name Abdurashid was caught stealing onions from a shop and was (to take) to a judge. The judge (to give) him three choices: eat all the onions in one go, be beaten, or pay a fine. The boy, without (to think), started eating the onions his eyes soon (to begin) to burn. He later (to understand) that one should always think before doing anything on impulse.



Translate the words.

Onion	bozor
Steal	to'lamoq
Shop	piyoz
Pay	sudya
Judge	o'g'irlamoq
Burn	yonmoq

## HOMOPHONES

See – sea

Air –

Bye –

Sell –

Mail –

Here –

Bee –

Tail –


Deer –

Peace –



Painter: Yoqubbek HALIMBEKOV

## PREPOSITIONS ALWAYS HELP YOU



Complete the columns.

At	In	On
Home	A car	A bus



A taxi, work, a train, school, a boat, a ship, a motorbike, the bottom, a row, collage, the left, the way, reception, the sky, the university, a boat.

Dinora ABDULLAJONOVA

## WORD GAME

Words to use instead of «very».



Very noisy –

Very often –

Very old –

Very old - fashioned –

Very poor –

Very powerful –

Very quick –

Very raining – pouring

Very rich –

Very shy –

Very simple –

Deafening, timid, ancient, archaic, destitute, frequently, rapid, wealthy, basic, compelling.

Ma'mura G'ULOMOVA

Topay desang kamol,  
Oltin olmay, kitob ol!

Tong  
yulduzi

## MEHMON BO'LIB KELINGLAR

Sariq, tilla darvoza,  
Ichkarida nima bor?  
Mo'ralayman eshikdan,  
Kulib chorlar mevalar.

Gilos mendan quvonib,  
Qo'sh-qo'sh sirg'a tutadi.  
Nok-chi, meni kutganday,  
Kulib salom aytadi.

Sersalom olma bugun,  
Negadir turar o'sal.  
Qizarib ikki yuzi –  
Bo'lmaganmikin kasal?!

Meva terdim bir talay,  
Anjirni yedim to'yib.  
Jannatdir bog'im asli –  
Hosilin ko'ring kelib.

To'lishib, kuchga to'lib,  
Yashardim men qaytadan.  
Mehmon qilaman, keling,  
Bobolarim bog'idan.



**Afzalbek MADANOV,**  
Qashqadaryo viloyati, Kitob tumanidagi  
1-umumta'lim maktabi o'quvchisi

## «NABIRAMGA MAKTUBLAR» TURKUMIDAN

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda)

Sinfboshi sifatida sinfingda kutubxona tashkil qilganingni eshitib, juda xursand bo'ldim, bolam. Ammo meni bilasan-ku, boshlagan har bir ishingni sababi va maqsadini bilgim keladi. Nima bo'lsa ham uni ko'pchilikka ergashib qildingmi yoki biron sabab bo'libmi, meni o'shanisi qiziqtiradi.

Aytishingcha, kitob o'qigan bolalar og'ir, bosiq, mulohazali ekan. Urishmasakan, qo'pollik qilmasakan, so'kinmasakan. Hamma g'alva, to'polonni boshida kitob o'qimaydiganlar turibdi ekan.

To'g'ri faxmlabsan. Kitob bilan oshno bo'lgan boladan hech qachon yomonlik chiqmagan. Bekorga Rumi Hazratlari: «Kitobdan yaxshi do'st yo'q», demaganlar.

Bir podshoning ikki o'g'li bor ekan. Ulardan biri taxt vorisi bo'lishini juda-juda xohlar ekan. Lekin qaysinisi munosibroq? Rosa boshi qotibdi. Shunda kallasiga bir reja kelibdi. Ikkoviga ham bir xilda boylik berib: «Boringlar, dunyo kezinglar, ammo falon yilda qaytib kelinglar», deb tayinlabdi. O'sha falon yil ham bo'пти. Shoh kuch-quvvatdan ketib, to'ridan go'ri yaqin bo'lib qolibdi. Shunda bir o'g'li safardan qaytibdi.

– Xo'sh, o'g'lim, qaylarda bo'lding, huzurimga nima bilan kelding? – deb so'rabdi.

– Yurt kezdin, halol tijorat qildim, xazinangizni to'ldiray, deb mingta tuyada dur-u javhar olib keldim, – debdi o'g'li.

Ha, debdi podsho o'zicha, bu o'g'lim o'rnimda qolsa, yurt och qolmaydi, och qolmagandan keyin

norozilik ham chiqmaydi, saltanatim davom etadi, deb o'ylabdi. Ammo shart bo'yicha u ikkinchi o'g'lini ham kutishi kerak ekan. U

**Erkin MALIK,**  
O'zbekiston Respublikasida  
xizmat ko'rsatgan jurnalist



## KITOB VA SALTANAT

ham kelibdi.

– Xo'sh, o'g'lim, qaylarda bo'lding, huzurimga nima bilan kelding? – so'rabdi shoh.

– Yurt kezdin, ilm o'rgandim, kutubxonangizni boyitay, deb bir tuya kitob bilan keldim, – debdi o'g'li.

Podsho kitob bilan kelgan o'g'lini o'z o'rniga podsho, dur-u javohir bilan kelgan o'g'lini unga vazir qilib tayinlagan ekan.

Ko'rdingmi, bolam, dono odam tarozining bir pallasiga boylik, ikkinchi pallasiga kitob qo'ysa, kitobni tanlaydi. Dono podsho ming tuyalik javohirdan ko'ra bir tuyalik kitob bilan kelgan o'g'lini taxtga ko'tardi. Chunki har qancha boylik kitob orqasidan keladi-da. Ilm bilan yurt boshqariladi. Shuning uchun ham xalqimiz, bolaning bir qo'lga non bersangiz, ikkinchi qo'lga kitob bering, deydi. Non qorinni to'ydirsa, kitob esa aqlni to'ydiradi. Sen juda ham to'g'ri ish qilgansan, mening kitobxon bolam.

(Davomi bor)

## MALLAVOY

Mushugim bor – Mallavoy,  
U juda ham erkatoy.  
Hammamizga u yoqar,  
Bizga mo'tirab boqar.

Och qolganda miyovlab,  
Xabar berar Mallavoy.  
Idishchada avaylab,  
Sut beraman, hoynahoy.

**Laylo ATAQULOVA,**  
Jizzax viloyati, Paxtakor  
tumanidagi 2-umumta'lim  
maktabi o'quvchisi

## ONAJON

Onajonim salomat,  
Chiroylari o'zgacha.  
Rahmat sizga, onajon,  
Biz bilan bo'ling omon.

## OLMAXON

Ismim qiziq, olmaxon,  
Dumim pahmoq – olmaxon.  
Yong'oqni xush ko'raman,  
Nomim qiziq – olmaxon.

**Abdurahmon  
ABDUQAYUMOV,**  
Toshkent viloyati, Toshkent  
tumanidagi 26-umumta'lim  
maktabi o'quvchisi

## QUTLAYMIZ!

Oliy toifali pedagog, Xalq ta'limi a'lochisi, «Mehnat shuhrati» ordeni sohibi Ulug'bek Mustafoning bolalar hayotidan olingan turli voqea-hodisalarni hikoya qiluvchi «O'kinch», «Ehtirom», «Akmalning o'yinchoqlari», «Insof», «Havas» kabi asarlari kitobxonlarga yaxshi tanish. Ushbu kitoblarda muallif voqelik talqinida bolalarga xos bo'lgan turfa fe'l-atvorlarni, hayotga bo'lgan ularning bej'ubor munosabatlarini ravon va qiziqarli tarzda ifoda etadi.

Biz ustozni 60 yillik tavallud ayyomi bilan gazetxonlar nomidan chin dildan qutlab, ularga uzoq umr hamda yangidan yangi ijodiy parvozlar tilaymiz.



– Turaqol endi, qizim!  
Lobar ko'zini ochganida, tepasida onasi jilmayib turardi.

– Qani top-chi, bugun qanaqa kun?

Lobar qancha o'ylasa ham topa olmadi. Narigi xonadan chiqqan dadasi:

– Qizim, tug'ilgan kuningda ham uxlayverasanmi? – deya sirni oshkor qildi.

– Ur-re! Bugun tug'ilgan kunim ekan-da! – Lobarning sevinchdan uyqusi qochdi.

– Mana senga sovg'a, qizim, – shunday deya onasi kashta gulli zangori ko'ylakni unga tutqazdi.

– Rahmat, – deya onasi va dadasini quchib oldi u.

Yuvinib kelgunicha zangori ko'ylak ikkita bo'lib qolibdi.

– Ikkovi ham mengami? – so'radi Lobar onasidan.

– Yo'q, bittasi eng yaxshi ko'rgan dugonangga.

– Iye, yaxshi ko'rgan dugonam ikkita-ku! Biri – Shahnoza, ikkinchisi – Lola. Bir sinfdan o'qiydiz.

Dadasi bilan oyisi bir-biriga qarab olishdi. So'ng, oyisi Lobarga:

– Dugonalarini chaqirib kel, – dedi.

Lobar dugonalarini aytib kelgani ketdi. Ko'p o'tmay, u ikki dugonasini boshlab keldi.

– Kelinglar, qizlarim, – ularni iliq qarshi oldi Manzura opa. – Sen Shahnoza bo'lsang kerak-a?

– Yo'q, men Lolaman, Shahnoza anavi, – dedi novcharoq, ko'k ko'zli, do'mboqchadan kelgan jingalak sochli qizga ishora qilarkan. So'ng:

– Mana, Lobarga sovg'a olib keldim. Rangli rasmqalamlar. Ikki so'm turadi, – Lola qo'lidagini Manzura opaga tutqazdi-da, tuffini yechmani, ichkariga yurdi. Cho'g'dek gilamga izi tushdi. Shahnoza bo'lsa, yo'lakda iymanib

**Ulug'bek MUSTAFO**

turardi.

## SOVG'A

– Qizim, sen nega turibsan? Kira qol, – dedi Nurmat aka. Shahnoza gazetaga o'rog'liq allanimani Lobarga uzatarkan:

– Bu senga sovg'a, – dedi ohistagina. – Kechir, qimmat emas.

– Sovg'aning qimmat-arzoni bo'larkanmi? – Lobar shunday deya dugonasini quchdi.

Dasturxon to'kin edi. Lola Shahnozaga o'xshab tortinib o'tirmadi. Shirinliklardan bir-bir yeb ko'rди.

– Kecha edam biram shirin tarvuz olib keldiki... Sizlarda yo'q ekan-da, – dedi u gap orasida. Buni eshitgan Nurmat aka:

– Tarvuz olish esimdan chiqibdi-ya, – deya xijolat tortди.

Biroz o'tirgach, Shahnoza uyiga otlandi.

– Iye, qizim. Hech narsa yemading-ku, – ajablendi Manzura opa.

– Oyim oshqovoq somsa yopayotgandi. Lobarni olib kel degandi, – dedi u.

– Oshqovoq somsa emish... – dedi masxaromuz iljayganca Lola. – Mening oyim go'shtli somsaga usta.

Hozir borib oyimga yoptiraman, – dedi-da, uyiga ketdi.

Lobar Shahnozalamikiga borish uchun qo'shni xonaga kirib, yangi ko'ylagini kiyib chiqadigan bo'ldi. Shunda dugonalari keltirgan sovg'alarga ko'zi tushdi. Ayniqsa, unga Shahnozaning sovg'asi – pushtirang lenta biram yoqdi, darrov sochiga o'ragisi kelib ketdi. Lola keltirgan rasmqalamlarini ko'rib, ko'ngli allanechuk bo'lib ketdi. Axir bu o'ziniki-ku... Chehrasi ma'yuslanib qoldi.

Shu payt oyisi yoniga keldi-da:

– Qizim, ko'ylak bitta, qaysi dugonangga berasan? – dedi oyisi.

– Oyi, ko'ylakni Shahnozaga beraman, – dedi Lobar...

# OSHPAZLAR BELLASHUVI

**Qizalog'imni bog'chadan olib qaytar ekanman, yo'l-yo'lakay bugungi kuni qanday o'tgani bilan qiziqaman. U esa birin-кетин savollaringga javob bera boshlaydi:**

– O'yijon, bugun bog'chada sharbat ichdik. Uxlashdan oldin ikkita ovqat yedik. Siz ham hozir ikki xil ovqat qilasizmi?

Qizchamning gaplaridan so'ng 3–7 yoshgacha bo'lgan bolalarning ovqatlanishiga alohida e'tibor lozimligini, bu ularning har tomonlama sog'lom bo'lib voyaga yetishida muhim omil ekanini anglayman.

Bugun farzandlarimiz kunning asosiy qismini maktabgacha ta'lim muassasasida o'tkazishadi. Hozirda bog'chalarda tarbiyalanuvchilarning 3 mahal sifatli ovqatlanishlari uchun bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, shu kunlarda poytaxtimizda «Yilning eng yaxshi maktabgacha ta'lim muassasasi



oshpazi» ko'rik-tanlovining tuman bosqichi bo'lib o'tmoqda. Yashnobod tumanidagi ko'rkam va zamonaviy 165-maktabgacha ta'lim muassasasida tashkil etilgan bellashuvda ham bir necha oshpaz o'z mahoratlarini namoyish etdi.

Tanlov shartlariga ko'ra, har bir taom bolalarning ovqatlanish ratsionini hisobga olgan holda tayyorlandi. Bundan tashqari, taomlarning ko'rinishi va bezatilishiga ham alohida e'tibor qaratildi. Zero, bu bolajonlarning ishtaha bilan va yaxshi kayfiyatda ovqatlanishlarini ta'minlaydi. Ishtirokchilarning ishlarini esa O'zbekiston oshpazlar uyushmasi qoshidagi shef-klubning vitse-prezidenti Bahrom aka Shamsuddinov va Xalqaro o'zbek pazandachilik san'ati markazi direktori Tolibjon aka Umaraliyev baholab bordi.

Yakunda g'oliblarga diplom va esdalik sovg'alari topshirildi.

Sayyora QODIROVA



## O'ZBEK FARZANDLARI dunyoga dovrug' soldi

**Mamlakatimiz shaxmat maktabi vakillari xalqaro arenalarda doim o'z so'zini aytib kelgan. Rustam Qosimjonov, Nafisa Mo'minova, Hulkar Tohirjonova, Nodirbek Abdusattorov kabi nomlarni bugun nafaqat yurtimizda, balki butun dunyoda hurmat bilan tilga olishadi, ularning muvaffaqiyatlarini katta qiziqish bilan kuzatib boradi.**

Quvonarlisi, yaratilgan keng sharoitlar tufayli so'nggi paytlarda diyorimizda kuchli shaxmatchilarning yangi avlodi yetishib chiqdi. Ularning yirik musobaqalarda qo'lga kiritayotgan olamshumul g'alabalari barchamizni birdek xushnud etmoqda. Kuni kecha Belorus poytaxti Minsk shahrida o'tkazilgan o'smirlar o'rtasidagi II jahon chempionatida o'zbek farzandlarining erishgan ulkan muvaffaqiyati so'zimiz isboti, albatta. Blits va rapid yo'nalishida bo'lib o'tgan chempionatda yosh sportchilarimiz jami 9 ta medalni qo'lga kiritib, umumjamoa hisobida 1-o'rinni egalladi.

Jumladan, rapid yo'nalishida Humoyun Begmurodov hamda Umida Omonova barcha raqiblarini ortda qoldirib, yakunda jahon chempioni degan sharafli nomga sazovor bo'ldi. Aytish kerakki, ushbu sportchilarning muvaffaqiyatlarini ta'minlovchi omil ko'pchilikda katta taassurot qoldirdi. Shuningdek, Afro'za Hamdamova, Olimos Rahmatullayev terma jamoamiz hisobiga 2 ta kumush medalni qo'shib qo'ydi.

Blits bellashuvlari ham muvaffaqiyatli tarzda o'tib, unda vakillarimiz bir yo'lga 3 ta oltin (Humoyun Begmurodov, Afro'za Hamdamova, Umida Omonova) medalni qo'lga kiritdi. Shuningdek, Ruqiya Olimova va Shahrombek Karimov kumush medal egasiga aylandi.

– Ushbu musobaqadan katta taassurot oldim. Jahon chempioni bo'lganimdan ustozim, ota-onam rosa xursand bo'ldi. Kelajakda kattalar o'rtasida ham jahon va Olimpiada g'olibi bo'lishni istayman, – deydi Humoyun Begmurodov.

Yosh chempionlarga galdagi barcha turnirlarda omad va zafarlar tilab qolamiz.

Sa'dullo TURSINOV



## G'JDUVONLIKLAR PESHQADAM

**Yozgi ta'tilda Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 8-DIUMI qoshida kunduzgi oromgoh tashkillaştırildi. Bugun ta'lim maskani hovlisi bolajonlar bilan gavjum.**

**Sport to'garaklarida mashg'ulotlar muntazam olib borilmoqda.**

Maktab-internati o'quvchilari joriy yil Buxoro shahrida «Umid nihollari» sport musobaqalarida yuqori natijalarni qo'lga kiritdi. Maktab-internati 10-«B» sinf o'quvchisi Jamshid Rafiqov 110 metrga to'siqlar osha yugurish bahsida viloyat chempioni bo'lgan bo'lsa, 9-«A» sinf o'quvchisi Asadbek Umarov va 9-«B» sinf o'quvchisi Ozodbek Ibragimov 4x100 metrga estafetali yugurishda 2-o'rinni, 9-«A» sinf o'quvchisi Go'zal Yormuhammedova balandlikka sakrash bahsida 3-o'rinni egalladi. Stol tennis bellashuvlarida 10-«B» sinf o'quvchilari Lazizbek Ramazonov va Abbas Rashidov 2-o'rinni qo'lga kiritdi.

G'oliblar diplom, medal va kubok bilan taqdir-

landi. Shunisi quvonarlili, umumjamoa hisobida g'ijduvonliklar viloyat «Umid nihollari» sport musobaqalarida 1-o'rinni egallab, Prezident sovg'asi – «Damas» avtomobili bilan mukofotlandi.

Muhammadsodiq ALIMOV

Kuni kecha Yoshlar ijodiyot saroyida «KinderExpo» Xalqaro ixtisoslashtirilgan ko'rgazma bo'lib o'tdi. Unda Hindiston, Indoneziya, Qozog'iston, Xitoy, Tayvan, O'zbekiston kabi mamlakatlarning 25 dan ziyod kompaniyalari tomonidan ishlab chiqarilgan bolalar xavfsizligini ta'minlash va ularni jismoniy rivojlantirishni rag'batlantirish qurilmalari, bolalar ozuqa va ichimliklari, mebellari hamda o'yinchoqlar namoyish etildi.

– Akam bilan bolalikdan «Wolt Disney» multfilmlarini sevib tomosha qilardik. Shu orqali ikkimizda o'yinchoqlar yasashga qiziqish uyg'ondi. Bugunga qadar ko'plab ko'rgazmalarda o'z mahsulotlarimiz bilan ishtirok etdik. Bolalar biz tayyorlagan

# «KINDEREXPO» BARCHASI BOLALAR UCHUN

*Bu dunyoda o'yinchoq o'ynamaydigan, u bilan ovunmaydigan bola bo'lmasa kerak.*

ovunchoqlarni shunchaki o'ynamaydi, aqliy imkoniyatlarini ishga solgan holda ularni yasaydi. Bu bilan kich-

kintoylarning miya faoliyati rivojlanadi. O'yinchoqlarimiz tabiiy mahsulotlardan tayyorlangani uchun mutlaqo xavf-

siz, – deydi «Wonder Wood» firmasi xodimi Nigora Yusupova.

– Biz ishlab chiqarayotgan mebellar zamonaviy va qulayligi bilan ajralib turadi. Hali ish boshlaganimizga uncha ko'p vaqt bo'lmagan bo'lsa-da, bugunga qadar ko'plab bog'chalarni o'z mahsulotlarimiz bilan ta'minlashga ulgurdik. Yaqindan boshlab mebellarimizni Tojikiston, Qirg'iziston va Qozog'iston mamlakatlariga ham eksport qilishni yo'lga qo'ydik, – deydi «Femous» mebellar fabrikasi ish boshqaruvchisi Hasan Jo'rayev. Ko'rgazmadan bolajonlar va ularning ota-onalari bir olam taassurot oldi.


Nigora ABDUNAZAROVA



## BO'SH O'TIRMAY, BOSH QOTIR!

### «K» HARFLI CHAYNKROSSVORD

1. Patlari yashil, jarliklarga uya soluvchi hasharotxo'r qush. 2. Kamyob tog' jonivori. 3. Metall buyumlarini o'yib naqsh chiziladigan amaliy san'at turi. 4. Kattaning aksi. 5. O'zini yuqori, g'ururli tutmaslik fazilati. 6. Samoda turfa rangda namoyon bo'ladigan manzara. 7. Gulsevar hasharot. 8. O'simlikning barg, gulga aylanadigan boshlang'ich a'zosi. 9. Maqoldan: «Sholining orqasidan ... suv ichadi». 10. Moviy, zangori rang. 11. Ovlanadigan sayroqi tog' parrandasi. 12. «Osmon sferalarining aylanishi haqida» asari muallifi, polyak astronomi. 13. Xonadonda mahsulot ishlab chiqarish faoliyati. 14. Tovuqning jo'ja ochishga tayyor holati. 15. Daraxt tanasining shox-butloqlari kesib tashlangan yuqori qismi. 16. Yanchilgan don chiqiti. 17. Samovarning choynak qo'yiladigan moslamasi. 18. Chuqur joyga to'plangan yomg'ir suvi. 19. Bo'lg'usi davr, istiqbol. 20. Chiroq, go'zallik.



Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV

## Pazanda qizga!

### BAQLAJONLI SALAT



**Yoz – pishiqchilik davri hisoblanadi. Bu paytda bozor rastalaridagi turli sabzavot va mevalarni ko'rib ko'zingiz quvnaydi. Masalan, pomidorsiz hech bir salatimiz chiroyli va mazali chiqmaydi. Baqlajonli salatlarini esa hammamiz birdek sevib iste'mol qilamiz. Shu bois, bugun sizlar bilan baqlajondan tayyorlanadigan yana bir salatni o'rganamiz. Tayyormisiz? Unda, boshladik!**

#### Kerakli masalliqlar:

4 dona o'rta-cha kattalikdagi baqlajon, 1 dona qizil rangli piyoz, 1-2 donacha sarimsoqpiyoz, 1 dona ko'k bulg'or qalampiri, 5-6 dona chaqilgan yong'oq, 1 oshqoshiq o'simlik yog'i, yarim bog' shivit, ta'bga ko'ra tuz, murch.

**Tayyorlanishi:** uzunasiga kesilgan baqlajonlarni tuzli suvda biroz ushlab turamiz. So'ngra quritib, chuqurroq tovada o'simlik yog'ida ikkala tomonini past olovda qizartirib olamiz. Sovigach, maydalab to'g'raymiz. Unga yirikroq to'g'ralgan piyoz va bulg'or qalampirini somoncha shaklida to'g'rab, maydalangan sarimsoqpiyoz, yong'oq va shivitni aralashtiramiz. Keyin esa salat ustiga ozgina o'simlik yog'i qo'shamiz. Mana, baqlajonli salatimiz ham tayyor!

**Yoqimli ishtaha!**



NARGIZA tayyorladi

8

2-iyul 2018



Muassis:

O'zbekiston Respublikasi  
Xalq ta'limi vazirligi

Bosh muharrir  
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston  
Matbuot va axborot  
agentligida  
0208-raqam bilan 2007-yil  
2-fevralda ro'yxatdan  
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:  
Qahramon QURONBOYEV,  
Alisher SA'DULLAYEV,  
Laziz TANGRIYEV,  
Murtazo SULTONOV,  
Feruza JALILOVA,  
Ashurali JO'RAYEV  
(Bosh muharrir o'rinbosari),  
Feruz MATYOQUBOV  
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir  
Sayyora QODIROVA

Rassom  
Feruzbek KAMOL o'g'li  
Sahifalovchi-dizayner  
Shaxobiddin  
MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU  
bosmaxonasida chop etildi.  
Manzilimiz va bosmaxona  
manzili:  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Indeksi: 100011.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail: [info@tongyulduzi.uz](mailto:info@tongyulduzi.uz)  
[www.tongyulduzi.uz](http://www.tongyulduzi.uz)  
Adadi – 28 712  
Buyurtma – V 1913

Tahririyatga kelgan  
barcha qo'lyozmalar tahrir  
qilinadi, mualliflarga  
qaytarilmaydi.  
Shakli A-3, 2 bosma taboq.  
Bahosi kelishilgan narxda.  
Gazeta haftaning dushan-  
ba kuni chop etiladi.  
Topshirish vaqti – 18:00  
Topshirildi – 18:00  
Tel. /faks:  
(99871) 244-63-08